AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ZARAFSHON VOHASI

Alisher Jalilov
Buxoro tumani 16-son umumta'lim
maktabi tarix fani o'qituvchisi

O`zbek xalqining shonli tarixida ne-ne buyuk zotlar o`tmagan.Ularning har biri millatimiz g`ururi,xalqimiz nomini dunyoga tanitish uchun xizmat qilgan buyuk e`tiqod egalari sanalgan.Tariximizning butun bir davrini ko`z oldimizga gavdalantirar ekanmiz,unda shunday bir davr borki,ajdodlarimiz muqaddas zaminida erkin nafas olib,necha yillar toptalib kelingan nomuslarini qayta tiklab, kuchli davlat ostida birlashdilar. Bu saltanat poydevorini buyuk tafakkur sohibi Sohibqiron Amir Temur yaratdi.

O`rta asrlarning bu ulkan saltanati kuch va adolat birligida boshqarildi .Unung hukmronligi davrida Movarounnahr dunyo taraqqiyoti bilan bevosita bo`glanib,jahonning ilg`or mamlakatlaridan biriga aylandi.Buyuk ipak yo`lining katta qismi Temur davlati nazoratiga o`tadi.Amir Temur o`z yurtida osoyishtalikni ta`minladi va buning natijasida mamlakatning iqtisodiy hayoti ravnaq topib bordi. Mamlakatda hunarmandchilik,dehqonchilik,ichki va tashqi savdo kengaydi, ilm-fan, madaniyat yuksaldi.Sohibqiron hukmdorligi davrida Samarqand, Buxoro, Kesh, Termiz va boshqa ko`pgina shaharlar gavjumlashib,o`zining yangicha qiyofasiga,ichki va tashqi savdo aloqalari orqali Sharqning hunarmandchlik va savdo markazlariga aylandi. Me`morchilik keng rivoj topib,nafaqat poytaxt Samarqandda balki boshqa yirik shaharlarda ham hashamatli inshootlar, ko`shklar, masjidlar, tolibi ilmlar uchun madrasalar,bozorlarukarvonsaroylar qad ko`taradi.

Temur barpo etan davlat poytaxti sanalgan Samarqand bosh Shahar bo`lganligi sababli ko`plab qurilish ishlari dastlab shu shaharda olib boriladi. Ko`plab zafarli g`alabalar tufayli o`sha mamlkatlardan olib kelingan mohir ustalar shahar obodonchiligi uchun safarbar qilinadi. Samarqandqayta qurilib,yangi shahar qiyofasi barpo etiladi. "Shahar tevaragi mustahkam qal`a devor bilan o`ralib,Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Qorizgoh, So`zangaron va Feruza kabi nomlar biln ataluvchi oltita darvoza o`rnatiladi"[51].

Amir Temur uchun qurilgan qarorgohlardantashqari Shahar aholisining turmush darajasini yaxshilash borasida ham birmuncha ishlar olib boriladi.Mamlakat ichki hayotini izga solish uchun hunarmandlarga g`oyat katta e`tabor qaratadi. A. Muhammadjonovning ta`kidlashicha Temurning amri-farmoni bilan Damashqning eng mohir to`quvchilari, Xalabning eng mohir paxta yigiruvchilari,Anqaraning movut to`quvchi korxonalari, Turkiya va Gurjistonning zargarlari Samarqandga ko`chirib

[51]Muhammadjonov. A. Temur va temuriylar saltanati. – Toshkent:1994. – B. 47.

kelingan. Mana shukabixayrli ishlar tufayli Movarounnahr shaharlarida savdo va hunarmandchilik rivojlanadi. Shaharlarva qishloqlar o`rtasida savdo aloqalari kengayadi.

O`sha davrda bu yerda bo`lgan ispan elchisi Gonzales De Klavixo Samarqand bozorlarida bug`doy va guruchning mo`lligi va arzonligi haqida aytib o`tadi. Shuningdek, bu yerning o`zida ishlab chiqariladigan ipak matolar:atlas,kimxob,har xil ip va jun to`qima molar,mo`ynali va ipakli po`stinliklar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligini alohida ta`kidlaydi. Shahar bo`ylab hunarmand va savdogarlarga qulay sharoit yaratish uchun rasta va do`konlar quriladi.Ichki savdo-sotiq shu zaylda yo`lga qo`yiladi. Shuni alohida aytib o`tish joizki, Movarounnahr taraqqiyoti faqatgina o`z hududidagi rivojlanish bilan cheklanib qolmasdi, shu bois Temur o`z sarhadlarini kengaytirib borarkan, eng avvalo jahon savdosidagi eng muhim yo`l ipak yo`li nazoratini qo`lga olishni maqsad qiladi.”U Oltin O`rda hududidan o`tgan shimoliy savdo yolini O`rta Osiyo orqali o`tgan qadimiy yo`lga yana burib yuborishga harakat qilgan”[52].

Samarqand bosh shahar bo`lganligi bois, u savdo markazi ham sanalardi. Xuddi shu uchun ko`p savdogarlar bu shaharga savdo qilish maqsadida tashrif buyurishar edi.Ispan elchisi Samarqandning tashqi savdoda ham katta o`rin tutishini qayd qilib, Rus va Tatariyadan charm va surp, Xitoydan juda yaxshi to`qilgan ipak matolar, ayniqsa dunyoga dong`i ketgan atlaslar olib kelinishini, ular ichida eng qimmatlisi sidirg`a jujunchalar ekanligini aytib o`tadi. Bundan tashqari yana Xitoydan tashqi dunyoning boshqa yerlarida topilmaydigan mushk hamda la`l, gavhar, billur, ravoch va ko`plab ziravorlar: muskat yong`og`i, qalampirmunchoq, zanjabil, anbar, dolchin va iskandariyaga olib borilmaydigan boshqa turli narsalar keltilganini yozib qoldiradi. O`sha davr muarrixi Ibn Arabshohning yozishicha, Samarqandga chet mamalakatlardan oltin va kumush, xususan, Xurosondan ma`danlar; Hind va Sinddan yoqut, olmos; Xitoydan atlas, yashin toshi, muhk va boshqa mollar olib kelingan.

Bu kabi hunarmandchilik va savdo aloqalari mamlakatning boshqa yirik shaharlari bo`ylab ham olib borilgan. Movarounnahrning Samarqanddan tashqari Buxoro, Toshkent, Shoxruxiya, Andijon, Termiz, Shahrisabz, Qarshi kabi shaharlari ham qizg`in rivojlanish bosqichini o`tagan. Bu kabi shaharlarda bir qancha hunarmandchilik mahallalari yuzaga keladi. Ko`pgina shaharlarda zargaron, misgaron, so`zangaron, sangtaroshon, shishapazon, charmgaron, pichoqsozlik va boshqa bir qancha hunarmandchlik mahallalari bo`lganligi qayd etiladi.

Hunarmandchilik sohasida to`qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik yetakchi o`rinni egallagan edi. Mahalliy va chetdan keltirilgan ipakdan turli nav shoyi gazlamalar to`qish keng yo`lga qo`yilgan edi. Manbalarda atlas, kimxob, banoras va duxobalar qatorida tovlanuvchi yaltiroq xoro,nafis va guldor debo kabi shoyidan to`qilgan gazmollarning nomlari uchraydi. Shoyi matolar, qirmizi va zangori duxobalardan

[52] *Qarang:* O’sha asar. – B. 31.

zarbof liboslar tikilgan. Shoyi matolar va zardo`zi buyumlar zeb-ziynatlar darajasida qadrlanar va ulardan,asosan saroy ayonlari va mulkdor tabaqa vakillari kiyinar va foydalanardi. Podsho va sultonlar elchilar orqali bir-birlariga boshqa buyumlar qatori shoyi va nafis ip gazlamalar tuhfa qilar edilar. Yevropa mamalakatlaridan Samarqandga olib kelingan mollar ichida farang gazmollari alohida ajralib turgan. Samarqanddan chet mamlakatlarga xususan, Rusiya, Tatariston, Sibirga, asosan arzon narxli ip matolar, duxoba, shoyi, qog`oz, quruq meva, guruch paxta va kalava iplar chiqarilgan. Chet davlatlar bilan o`zaro savdo-sotiqni kengaytirishda Temuriylarning qo`shni mamlakatlar bilan olib brogan elchilik aloqalari katta rol o`ynadi.XV asrning 1-choragida Ulug`bek va Shohruh davlatlari bilan Xitoy o`rtasida muntazam elchilar almashinib turildi. Xitoy temuriylar bilan savdo qilishdan manfaatdor edi.Movarounnahr va Xurosondan Xitoyga yilqi olib ketilardi.Har ikki uch yilda Samarqand bilan Hirotga Xitoy elchilari, Xonbaliqqa esa Movarounnahr va Xuroson elchilari va savdogarlari qatnab turishgan. 1418-yilda Ardasher boshliq Shuxrux elchilari Xitoyda bo`ladilar. 1419-yilda bunga javoban Li di va Jong ku Xitoydan Samarqand, Hirotga elchi bo`lib keladilar. Bu kabi elchilik aloqalari davlatlar o`rtasidagi do`stlik va hamkorlikni ifodalardi. Elchilar o`z navbatida o`z yurtlari va o`zga mamlakatlarda g`oyatda qadrlanadigan noyob mollarni hukmdorlari nomlaridan sovg`a-salom sifatida taqdim etishgan. 1420-yilda Shoxrux va Ulug`bekning 530 nafardan iborat elchilik karvoni Xitoyga jo`natilgani to`g`risida ma`lumotlar saqlangan.

Movarounnahrdan Xitoyga o`sha zamonlarda ikki karvon yo`li orqali borilgan. Birinchi yo`l Toshkent, Sayram, Yettisuv va Sharqiy Turkistonning Turfon va Qumul Shaharlari orqali,ikkinchi yo`l Farg`ona vodiysi orqali Xo`jand, Qo`qon, Marg`ilon, Andijon, O`sh shaharlaridan o`tib Oloy vodiysi bo`ylab borgan va Sharqiy Turkistonning Qoshg`ar, Xo`tan, Yorkand shaharlari orqali o`tgan. Shoxrux va Ulug`bek zamonida Tibet va Hindiston bilan ham yaxshi qoshnichilik munosabatlari o`rnatiladi.1421-yilda Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi. Bu kabi elchilik aloqalari ikki mamlakatni har jihatdan bir-biriga yaqinlashtirgan,hamda savdo munosabatlarini o`sib borishiga zamin yaratadi.

Shuni alohida ta`kidlash joizki,ichki savdoni rivojlantirish va tartibga solish borasida hukmdorlarning pul islohotlarini o`rni yuqori bo`lgan. Temuriylarning nomdor vakili Ulug`bek mana shu jihatlarni inobatga olib, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruhiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etgan. Temuriylar davrida savdo markazlaridan bo`lgan Samarqand, Buxoro, Hirot, Qobul, Sheroz hududlari ancha taraqqiy etib, gavjum shaharlarga aylanganligini bilamiz. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur o`zining “Boburnoma” asarida shunday ma`lumotlarni keltiradi: “Hindiston bila Xuroson orasida xushki yo`ldin ikki bandardur.Bir Qobul yana bir Qandahor. Qoshg`ar va Farg`ona va Turkiston va Samarqand, Buxoro va Balx, Hisor va Badaxshondin karvon Qobulg`a kelurlar Bisyor yaxshi savdoxanadir. Savdogarlar Xitoyg`a yoki Rumg`a borsalar, ummuncha o`q savdo qilg`aylar. Har yili yeti-sakkiz o`n ming ot

Qobulg`a kelur. Hindistondan oq raxt va qand va shaker keltururlar.Xuroson va Iroq va Rum va Chin matoi Qobulda topilur[53]

Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu fikrlaridan ko`rinib turubdiki, Buxoro va Samarqand savdogarlari Qobul shahrida bo`lib,butun dunyo bo`yicha yig`ilgan savdogarlarning nodir mollarini shu yerda xarid qilib,o`z bozorlarida savdo qilishgan. Buyuk ipak yo`li orqali amalgaoshirilgan savdo aloqalaridagi eng muhim jihatlardan biri bu-savdo qatnovlaridagi karvon yo`llarining xavfsizligi sanalgan.Shuning uchun Buyuk ipak yo`lidagi ko`p foyda oluvchi mamlakatlar, umuman bu yo`llar o`z nazorati ostida olgan davlatlar karvon yo`llarini qaroqchilardan tozalash ishlariga ko`p kuch va mablag` sarf qilib kelganlar.Ayniqsa Amir Temur davrida Ipak yo`li orqali qatnagan karvonlar xavfsizligi to`la ta`minlangan.Fikrimiz isboti sifatida Amir Temurning zafarli yurishlari haqida hikoya qiluvchi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida quyidagi fikrlar bor: “Agar birov bir tabaq oltun yo kumush boshga quyib,yalg`iz o`zi sahroda kirib boxtardan xovargacha[54] borg`ay, hech kishi anga tik boqa olmas erdi”[55].

Tarixiy ma`lumotlardanko`rinib turibdiki,karvon yo`llarining xavfsizligi shu darajada ta`minlanganki, hech kim qaroqchilik va o`g`rilik qilishga jur`at qila olmagan. Shuningdek, Herman Vamberi “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” kitobida shunday deydi: “Nihoyatda qo`rqinchli, serurush zamonlar bo`lishiga qaramay Temur hokimiyatining soyasi tushgan yerlarning barchasida savdo juda jonli va sira xavfsiz edi”[56]. Qolaversa olim o`z so`zini davom ettirar ekan, Ispaniya elchilarini misol keltirib, elchlarning Trabzundan yo`lga chiqib ba`zi dushman viloyatlari orqali Samarqandga borganligini aytib o`tadi. Ular atrofida deyarli soqchilar yo`qligi hamda g`arbning noyob ashyosi yuklangan kajavali karvonni manzilga bezarar yetkazganligi olimni hayratga slogan.

Xullas, Sohibqiron Amir Temur tarixda o`ziga xos takrorlanmas buyuk shaxs o`tgan. U barpo etgan,barqaror tayanchga ega bo`lgan davlatda ilm-fan, san`at, me`morchlik rivojlandi,chegaralar daxlsizligi ta`minlandi,tinchlik hukm surib, savdo-sotiq gullab yashnadi. Davlat boshkenti bo`lgan Samarqand xalqaro savdo-sotiq markaziga aylanib, mamlakatning Buxoro, Qarshi, termiz, Toshkent kabi ko`hna va boqiy shaharlari o`zining yangicha qiyofasiga ega bo`ldi. Shaharlarda yangi hayot kirib kelib, aholining turmush-tarzi yaxshilandi. Barcha hudularda qurilish ishlari olib borilib, Temur davlatining buyukligini ko`rsatib turardi. Uning hukmronligi davrida Buyuk ipak yo`li bo`ylab karvonlar xavfsiz tarzda qo`shni mamlakatlar bilan savdo olib borib,davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti uchun hissa q`oshgan.

[53] Zahiriddin Muhammad. Bobur. Boburnoma. – Toshkent: “Yulduzcha”,1989. – B. 118.
[54] Sharqdan g`arbgacha
[55] Sarafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: “Sharq”, 1997. – B. 292.
[56] Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – Toshkent: “G`afur G`ulom”, 1990. – B. 55.